

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR VA UNIVERSITET 3.0 MODELII

Kasimova Fatima Tulkunovna

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası (DSc) TKTI.

Telefon: +998977032835

Mirjalilova Shaxnoza Mirziyod qizi

57-20 guruh talabasi Sanoat iqtisodiyoti va menejment kafedrası.

Telefon: +998946179119

Annotatsiya:

Maqolada jahon ta'lim standartlariga javob beradigan va axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ya'ngi avlod universitlariga ya'ni universitet 3.0 modeliga bosqichma-bosqich o'tish global ta'lim jarayonlarida integratsiya imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: Universitet, model, virtual auditoriya, individual, axborot texnologiya vositalari, integratsiya.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirish tizimiga o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning eng zarur qismi bu, albatta, ta'lim tarbiyaga borib taqaladi. Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz rivojlanishi va kelajagi ta'lim tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablariga mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. So'nggi besh yillik islohotlar natijasida respublikada ta'lim sifati va qamrovini oshirish hamda rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqildi va tubdan yangilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan O'zbekiston Respublikasini 2019 — 2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Raqamli



O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi.

Bundan tashqari, 2019 — 2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi doirasida ilm-fan sohasiga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hajmi 3 baravarga oshdi, yosh olimlar soni 6,5 ming nafardan 10,8 ming nafargacha yetdi, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar tashkil qilindi. Qabul qilingan hujjatlarning amaliyotga joriy qilinishi 2026-yilgacha bo‘lgan davrda respublikamizda innovatsion ekotizimning tegishli elementlari to‘liq shakllanishi va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.¹

Qabul qilingan uzoq muddatli dasturlarning amalga oshirilishi natijasida yuz beradigan tizimli o‘zgarishlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan hamda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalarida ko‘zda tutilgan islohotlar oliy ta’lim tizimi qamrovi, sifati va salohiyatini tubdan o‘zgartirishi hamda pirovardida zamonaviy bilimga ega oliy ma’lumotli, ilmiy salohiyatli bitiruvchilar sonining keskin ortishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida hayotimizga bosqichma-bosqich “Universitet 3.0” tushunchasini joriy etish masalasi ta’kidlangan. Bu tushuncha nimani anglatadi? Universitetlar tarixiy rivojlanish yo‘lida bir nechta modellar orqali o‘tib kelmoqda. Eng birinchi navbatda, an’anaviy va mumtoz “**Universitet 1.0**” modeli mavjud bo‘lib, unda faqat ta’lim berish ustuvor vazifa bo‘lgan. Muallim ma’ruza o‘tadi, talaba konspekt yozib boradi.

“**Universitet 1.0**”, ya’ni “birinchi avlod universiteti” faqat ta’lim berish makoni bo‘lib, uning maqsadi bilim yetkazib berishdan iborat. Keyinchalik shakllangan “Universitet 2.0” (“ikkinchi avlod universiteti”) modeli ta’lim berishga qo‘shimcha ravishda ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashgan dargoh sanaladi. XIX asrdan boshlab rivojlangan ta’lim muassasalari “tadqiqot universitetlari” deb ataladi. “Universitet 2.0” ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo‘ladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi.



“Uchinchi avlod universiteti”, yoki «**Universitet 3.0**», esa fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug'ullanadi.

“Universitet 3.0” da tadbirkorlik madaniyati rivojlangan bo'lib, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatilgan bo'ladi. Bunday universitetda texnologik startaplar yaratilib, patentlar muntazam ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo universitetlari umumiy sonining atigi 0,3 foizi “Universitet 3.0” modeliga mos, deb tan olinadi.

Mamlakatimiz universitetlari oldida 2030-yilga qadar ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish masalasi qo'yilgan. Bu holda oliygohlarimiz xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida yuqori o'rinlarni egallash imkoniyati bo'ladi.

Va nihoyat “**Universitet 4.0**” yuqoridagi barcha sifatlarni o'zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. “Universitet 4.0” yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar yetkazadi. Bu borada “Universitet 4.0” talabalarning individual ehtiyojlari asosida o'quv reja va dasturlar tayyorlaydi. “Universitet 4.0” talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko'nikmalariga ham ustuvor e'tibor qaratadi.²

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, axborot haddan ziyod ko'p tarqalgan bir davrda aynan “uchinchi” va “to'rtinchi” avlod universitetlar o'quv jarayonini shiddat bilan o'zgarayotgan voqelikka moslashtirish qobiliyatiga egadir.

Ya'ngi avlod universitetlariga bosqichma-bosqich o'tish global ta'lim jarayonlariga integratsiya imkoniyatini beradi. An'anaviy universitetlar zamon talablariga mos kela olmayapti. Ta'lim berish muhim, lekin buning o'zi yetarli emas. Nazariy tadqiqotlar muhim, lekin ular voqelikdan uzilgan bo'lsa, nazariy darajada qolib ketadi. Bugungi avlod universitetlarimiz ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishni o'rganishi kerak. Bu ularni mahalliy va xalqaro darajada nufuzini va ishonchini oshiradi. Faqatgina moslashuvchan oliygohlarga raqobatga dosh bera olishi aniq.

¹www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoniga

1-ilova

²<https://yuz.uz/uz/news/universitet-30>



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarda “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori.
2. Solidjonov, D. (2021). MODERN EDUCATION AND USEFUL METHODS FOR TEACHING. Scienceweb academic papers collection.
3. Komiljonov B. I "Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish". Monografiya. Tashkent.
4. Solidjonov, D. Z. O. (2021). THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET TECHNOLOGIES ON EDUCATION AT PANDEMIC TIME IN UZBEKISTAN. In СТУДЕНТ ГОДА 2021
5. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING? AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING. Интернаука, (22-4), 19-21.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. G'ulomov.N.F. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli sifatida: O'zbekistonda raqamli makonning shakllanishi // “Xalqaro moliya va xisob” ilmiy elektron jurnali, 2018. No 2. B. 1-10.
2. Proxorov.A., Konik L. Raqamli transformatsiya. Tahlil, tendentsiyalar, jahon tajribasi. - M.: MChJ "2019 yil, 26-bet ..
3. Burov V.Yu. Raqamli iqtisodiyotda kichik biznes, muammolar va istiqbollar. ishtiroki, tavalludining 75 yilligi va ilmiy-pedagogik faoliyatining 50 yilligi munosabati bilan Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan iqtisodchisi, doktor iqtisodchi. fanlari, prof. Ovanesyan S.S. Irkutsk, 2018 yil, 89–95-betlar.
4. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079»Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекстан-2030» и мерах по ее эффективной реализации <https://lex.uz/ru/docs/5031048>.
5. Polyanin A. V., Soboleva Yu. P., Tarnovsky V. V. Digitalization of small and medium business processes. 2020. No. 4. S. 80-96.

